

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019. Fil. 27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**XIDIROVA GULZODA TURDIALIYEVNA**

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARI AGRAR TERMINLARINING  
LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

UO‘K: 811.112.2’374.26:63

811.512.133’374.26:63

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in  
philological sciences**

**Xidirova Gulzoda Turdialiyevna**

Nemis va o‘zbek tillari agrar terminlarining leksikografik tavsifi..... 3

**Хидирова Гулзода Турдалиевна**

Лексикографическое описание немецких и узбекских сельскохозяйственных терминов ..... 25

**Khidirova Gulzoda Turdialievna**

Lexicographic Description of Agrarian Terms in German and Uzbek Languages.51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publications works ..... 55

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. Fil. 27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**XIDIROVA GULZODA TURDIALIYEVNA**

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARI AGRAR TERMINLARINING**  
**LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va**  
**tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1867 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ismailov Yusub Niyazmetovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Sadiqov Zohid Yaqubjanovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yaxshiyev Ashur Abdiyevich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti professor**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **DSc.03/30.12.2019. Fil. 27.01** raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «2» noyabr kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu\_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1134 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21- A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «14» oktyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil «14» oktyabr dagi 33 raqamli reestr bayonnomasi.)



*[Handwritten signature]*

**I.M.Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
ped.f.d., professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
filol.f.d.doktori, professor

*[Handwritten signature]*

**J.A. Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida sohaning keng taraqqiy etishi va davlatlararo har bir sohada samarali xalqaro hamkorliklar asosida sohaga oid terminologiyani o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Agrar terminlarning jamiyatda inson paydo bo'lishi bilan iste'molda bo'lganligi, ushbu sohaning qadimdan mavjudligini hamda ijtimoiy hayotning yirik va muhim sohalardan biri ekanligini anglatadi. Til va jamiyatning uzviy bog'liqligi, tilda mavjud leksemalarning to'xtovsiz o'zgarishlarga uchrashi, sohada iste'molda bo'lgan termin va so'zlarning muntazam o'zlashtirilishi tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu yo'l bilan tilshunosligida agrar sohaga oid termin va leksemalarni leksikografik va lingvistik xususiyatlariga alohida e'tibor berilmoqda. Nemis tili amaliyotida ushbu sohada sohalar kesimida samarali izlanishlar olib borilgan va bu ilmiy izlanishlar doimiy yangilanib borilayotganligini kuzatish mumkin. Agrar terminlarini nemis va o'zbek tillarida lisoniy xususiyatlarini ochib berish orqali terminlarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash imkonini bermoqda. Qishloq xo'jaligida mahsulotlarni yetishtirishda xorijiy tajriba va usullardan samarali foydalangan holda yuqori samaradorlikka erishish, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshiruvchi xorij texnologiyalarini vatanimizga olib kirish hamda mamlakatlar bilan olib borilgan o'zaro hamkorliklar doirasida iste'molda yangi agrar termin va leksemalarning ko'payishiga zamin yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida agrar terminlarini lingvistik tadqiq qilish asosida agrar sohaga oid leksemalarni tizimlashtirish, tartibga solish kabi masalalarga yechim topishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda agrar sohaning taraqqiy etishi, sohada ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish, qayta ishlash integratsiyasini yanada oshirish, kafolatli mehnat bozorini shakllantirish borasida bir qator samarali ishlar olib borilmoqda. Sohani rivojlanishda olib borilayotgan chora tadbirlarning soha taraqqiyoti va uning rivojlanishiga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm va izlanish bo'lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman biror bir sohaning kelajagi bo'lmaydi"<sup>1</sup> degan fikrlaridan kelib chiqib, hozirgi kunda turli tizimli tillarni chet tilidagi kasbiy terminlarning lisoniy xususiyatlarini ochib berish asosida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 -yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-son "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 09.12.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1331>

chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi qarorlari, 2019-yil 17-apreldagi PF-5708-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi farmonning va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek tilshunosligida terminologiya sohasida qator ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Z.Mirahmedova<sup>2</sup>, M.Abdiyev<sup>3</sup>, X.Jabborov<sup>4</sup>, O.O‘rinova<sup>5</sup>, Sh.Imyaminova, G.Tilovova<sup>6</sup>, H.Dadaboev, R.Doniyorov, A.Madvaliyev, X.Paluanova, O.Ahmedov, D.Kadirbekova, H.Mirzaxmedova, T.Valiyev, F.Qodirova, D.Mo‘minova va N.Atayevalar<sup>7</sup> tomonidan tadqiq etilgan.

Xorij tilshunosligida Sh.Shelov, B.Golovin, G.Aleksandrova, S.Grinev, V.Leychik, T.Kandelaki<sup>8</sup>, R.Bullmann, A.Fernz, V.Klute, L.Hoffmann, I.Honhold,

---

<sup>2</sup> Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Т.: Фан, 2010. – 125 б.

<sup>3</sup> Abdiyev M. Termin va terminologiya masalalarining o‘rganilishi. // Терминология ва терминография масалалари, Республика илмий анжумани материаллари. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 74 б.

<sup>4</sup> Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси. – Т.: Фан, 2011. – 89 б.

<sup>5</sup> Ўринова О. Ўзбек тилидаги чорвачилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. – Т.: Фан, 2011. – 122 б.

<sup>6</sup> Imyaminova Sh., Tilovova G. O‘zbekcha-nemischa-ruscha-lotinchа o‘rmonchilikka oid so‘zlar lug‘ati. – Т.: ToshDAU tahririyat-nashriyot bo‘limi, 2019. – 63 б.; Тиловова Г. Ўзбек ва немис тилларида ўрмончиликка оид терминларнинг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф.. – Т., 2021. – Б. 24.

<sup>7</sup> Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991.–186 с.; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Т.: Фан, 1977. – 160 б.; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1986. – 190 б.; Палуанова Х. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол. фан. докт. (DS) ... дисс. автореф. – Т., 2016. – 88 б.; Ахмедов О. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Т., 2016. – 255 б.; Кадирбекова Д. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Т., 2017. – 44 б.; Мирзакмедова Х. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясашиш усуллари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Т., 2017. – 45 б.; Валиев Т. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Самарқанд, 2018. – 50 б.; Қодирова Ф. Инглиз ва ўзбек тилларидаги тасвирий санъат ва дизайнга оид терминларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Т., 2020. – 54 б.; Мўминова Д. Инглиз, рус, ўзбек тилларида нон маҳсулотлари технологияси терминларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Т., 2020. – 55 б.; Атаева Н. Инглиз ва ўзбек тилларида банк-молия терминларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фал. докт... (PhD) автореф... – Т., 2020. – 49 б.

<sup>8</sup> Шелов С. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. Монография. – Санкт-Петербург: Российская государственная библиотека, 2003. – 277 с.; Головин Б. Лингвистические учения о терминах. – М.: Высшая школа, 1987. – 105 с.; Александрова Г. Соотношение знаковой структуры и функций терминологических и квази-терминологических языковых единиц. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Самара, 2006. – 23 б.; Гринев С. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 303 с.; Лейчик В. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: ЛКИ, 2007. – 256 с.; Канделаки Т. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с.

A.Yorn, H.Fluk, R.Torsten, V. Hahn, D. Möhn, R. Pelka<sup>9</sup> va boshqa olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nemis va o‘zbek tillarida agrar terminlarining leksikografik tadqiqini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

agrar terminlarning tilshunoslikda tutgan o‘rni, lisoniy-leksikografik xususiyatlari va nazariy tadqiqini o‘rganish;

nemis va o‘zbek tillari agrar terminlarini lingvistik tadqiq qilish, ularning etimologik, morfologik hamda so‘z yasash imkoniyatlarini ochib berish;

nemis va o‘zbek tillarida qo‘llanadigan agrar termin va leksemalarini qiyosiy-tipologik tasniflash, komponent tahlili, o‘zlashgan hamda iste’mol doirasiga ko‘ra terminlarni tahlil qilish;

agrar soha leksikasini tizimlashtirish, uning tarkibidagi tematik guruhlarni belgilab olish va shu asosida mavzuviy tavsiflangan elektron lug‘at yaratish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida nemis va o‘zbek tillariga oid agrar (dehqonchilik va chorvachilik) terminlari hamda leksemalar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** nemis va o‘zbek tillarida agrar terminlarining leksikografik tavsifi va ularning lingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tasniflash (klassifikatsiya) usuli, lingvistik tavsiflash, tarixiy-etimologik, qiyosiy-tipologik usul, komponent va lingvostatistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sohaga oid adabiyotlarda agrar terminlarining ifodalanishi, xususan, leksikografik manbalar tahlili orqali nemis va o‘zbek tillarida yirik semantik maydon hosil qilishi aniqlanib, ularni leksikografik tavsiflash orqali tizimlashtirishga erishish mumkinligi dalillangan;

agrar terminlarning chog‘ishtirilayotgan tillarda so‘z turkumlari doirasidagi tahlili asosida ularning nominativlik xususiyati aniqlanib, ot so‘z turkumining ustuvorligi, shuningdek, sifat va fe‘l so‘z turkumlariga mansubligi isbotlangan;

nemis tilidagi agrar terminlarining o‘zbek tilidagi ekvivalentlari iste’mol doirasiga ko‘ra o‘rganilib, ularning asliyat tiliga mosligi leksikografik jihatdan asoslangan;

---

<sup>9</sup> Buhlmann R., Fearn A. Handbuch des Fremdsprachenunterrichts // Unter besonderer Berücksichtigung naturwissenschaftlich-technischer Fachsprachen. – Berlin/München, Gunter Narr. 2000. – 468 S.; Klute W. Fachsprache und Gemeinsprache // Texte zum Problem der Kommunikation in der arbeitsteiligen Gesellschaft. – Frankfurt/M.: Diesterweg, 1975. – 362 S.; Hoffmann L. Kommunikationsmittel Fachsprache. Eine Einführung. – Tübingen: Günter Narr, 1985. – 307 S.; Hohnhold I. Übersetzungsorientierte Terminologiearbeit. Eine Grundlegung für Praktiker. – Tübingen: Chronik, 1990. – 116 S.; Jörn A. Übersetzung und Linguistik. – Tübingen: Gunter Narr, 2013. – 328 S.; Fluck H. Fachsprachen. – Tübingen: Francke, 1996. – 361 S.; Thorsten R. Fachsprachen. – Berlin: Erich Schmidt, 2010. – 269 S.; Hahn W. Fachkommunikation. – Berlin: De Gruyter, 2019. – 184 S.; Möhn D., Pelka R. Fachsprachen. Eine Einführung – Berlin: Niemeyer Max Verlag GmbH, 1998. – 171 S.

nemis va o‘zbek tillarida agrar terminlarining sodda, kompozitsion, abbreviatura, gibrid, birikma terminlar sifatida ifodalanishi, lug‘atlarda leksikografik belgilar bilan tasniflanishi, terminlarning unifikatsiyalash orqali alohida leksikografik tizimga solish vositasida dalillangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

agrar terminlarining leksikografik tavsiflash va ishning maqsadiga erishish uchun nemis va o‘zbek tillarida agrar sohaga oid yuzlab leksemalar tahlilga tortilgan;

nemis va o‘zbek tillarida agrar terminlarining chog‘ishtirma asnodda guruh va tagguruhlarini aniqlanib, 3000 dan ortiq leksemalar tanlab olinib “Nemischa-o‘zbekcha-ruscha-inglizcha qishloq xo‘jaligi terminlarining tematik lug‘ati”ning bosma hamda umumiy leksemalar yig‘indisidan “Ger-Uzb-Rus-Eng E-Dictionary of Agriculture” elektron mobil ilova dasturi yaratilib, yaratilgan bosma va elektron lug‘atlar oliy o‘quv yurtlarida tillarni chog‘ishtirib o‘qitish va o‘rgatishga, chog‘ishtirma va qiyosiy tilshunoslik sohalari bo‘yicha maxsus seminar-treninglarni tashkil etishda amaliyotga tatbiq qilingan;

qishloq xo‘jaligida faol hisoblangan leksemalar Y.Ismoilov va Sh.Karimovlarning “Nemischa-o‘zbekcha, o‘zbekcha-nemischa” lug‘atining to‘ldirilgan va qayta ishlangan to‘rtinchi nashrida kiritilgan va hozirda amaliyotda foydalanilmoqda;

Toshkent davlat agrar universitetining xalqaro hamkorlik jarayonida Germaniya davlati bilan olib borilayotgan ilmiy-amaliy tajriba almashinuvlarida<sup>10</sup> yaratilgan lug‘atlardan manba sifatida foydalanilmoqda hamda bu lug‘atlarning ko‘p tilli ekanligi, tematik tasniflanganligi bir vaqtning o‘zida lug‘atlardan ko‘p tillarda o‘rgana olishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo‘llangan usullarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi, metodologik jihatdan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatdan ta‘minlanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, agrar sohada qo‘llaniladigan so‘z va terminlarning yasalish usullari, leksikografik xususiyatlari, chog‘ishtirilayotgan tillarda o‘xshash va farqli jihatlarining aniqlanganligi, lotin tilidan nemis tiliga va turkiy tillardan o‘zbek tiliga o‘zlashgan qatlamning soha terminologiyasida munosib ahamiyatga ekanligi ilmiy jihatdan asoslangani bilan izohlanadi hamda tadqiqot ishining nazariy xulosalari va tahlil usullari agrar terminologik tizimining ma‘no doirasini keng yoritib berishda ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan bir qator lingvistik fanlar xususan, terminshunoslik, leksikografiya, leksikografiya fanlari bo‘yicha ma‘ruza kurslari, seminar mashg‘ulotlarini ishlab chiqishda hamda olib borishda, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, terminologik lug‘atlar tuzishda amaliy manba vazifasini bajarish imkoniyati bilan belgilanadi.

---

<sup>10</sup> Меморандум о намерениях между Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) и Ташкентским государственным аграрным университетом. 2020.



**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

ko'p tilli lug'atlar tuzish va ularni tuzish tamoyillari batafsil yoritilib, yuzlab termin va leksemalarning to'planishi, lug'at maqolasini yanada boyitish borasidagi taklif va g'oyalardan 2022 – 2024-yillarda Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan IL-402104389-raqamli “Cho'l daraxt-butalari urug'ining sifat ko'rsatkichlarini baholash va ularning urug'chilik bazalarini shakllantirish” nomli loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2024-yil 19-iyuldagi 1/4-1-867-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim oluvchilarning soha terminlarini xorijiy tillarda o'rganish imkoniyati yaratilib, mahalliy va xorijiy auditoriyani keng jalb qilishga erishilgan;

nemischa-o'zbekcha agrar terminlarini terminologik lug'atlardan saralash, qo'shma so'zlar va so'z yasovchi affikslar “kam hajmga imkon qadar ko'p ma'lumotni sig'dirish” tamoyili yordamida ochib berish borasidagi xulosalardan 2018– 2019-yillarda bajarilgan (GIZ) Gesellschaft Internationalae Zusammenarbeit (Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati)ning “Markaziy Osiyoda kasbiy ta'limni rivojlantirish” nomli loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2022-yil 15-apreldagi 1/4-1-1072-son ma'lumotnomasi). Natijada nazariy va amaliy lug'atshunoslikning leksikografik-me'yoriy talablari, xususiyatlari ochib berilib, o'zbek lug'atchilik nazariyasi boyitilgan hamda xorijiy til, xususan, nemis tili ta'limini rivojlantirishga hissa qo'shgan;

soha leksikasi va professionalizmlarning terminlardan farq qilishi, soha va kasb egalari tomonidan amaliyotda qo'llanishi, til o'rganuvchilarda yangi leksemalar hosil qilish amaliy ko'nikmalarini shakllantirish borasidagi xulosalardan Toshkent davlat agrar universiteti va (PRAXX - Berufspraxis in Deutschland (Germaniyada kasbiy malaka oshirish) tashkiloti o'rtasida imzolangan shartnoma doirasidagi “Toshkent davlat agrar universiteti talaba va mutaxassislarining Germaniyada kasbiy malaka oshirish” xalqaro amaliy loyihasida foydalanilgan Berufspraxis in Deutschland (Germaniyada kasbiy malaka oshirish tashkilotining 2022-yil 5-maydagi ma'lumotnomasi). Natijada agrar terminlar muqobil lingvistik birliklarni tanlashda terminologik lug'atlar muhim ekanligini, bu kabi terminologik lug'atlarni tuzish asosida lug'atshunoslikda terminlar ulushini aniqlashtirish mumkinligi isbotlangan;

nemis va o'zbek tillari agrar terminlarining mavzuviy guruhlarga ajratilgan tavsiya va xulosalardan Toshkent davlat agrar universiteti va (LOGO - Landwirtschaft und Ökologisches Gleichgewicht mit Osteuropa) Sharqiy Yevropa bilan qishloq xo'jaligida ekologik muvozanat tashkiloti o'rtasida imzolangan shartnoma doirasidagi “Toshkent davlat agrar universiteti talaba va mutaxassislarining Germaniyada yozgi va qishki stajirovkalarni amalga oshirish” xalqaro amaliy loyihasida foydalanilgan (Landwirtschaft und Ökologisches Gleichgewicht mit Osteuropa tashkilotining 2022-yil 20-apreldagi ma'lumotnomasi). Natijada qishloq xo'jaligi terminlarini qiyosiy aspektda o'rganilishi, tematik tasniflash va terminlarning soha miqyosida amaliy foydalanishga erishish mumkinligi dalillangan;

nemischa-o‘zbekcha lug‘atlarda agrar terminlar berilishidagi leksikografik strukturalar va lug‘at maqolasi funksional matniy segmentlari, ishlab chiqilgan tavsiviy lug‘at maqolalari namunalari ikki tilli lug‘at tuzishni nazariy-amaliy jihatdan boyitishi borasidagi hamda nemis-o‘zbek tillaridagi agrar terminlarining leksikografik xususiyatlari, mavzuviy tasniflanishi hamda qishloq xo‘jaligida yangi termin va leksemalarning kirib kelishi va ularning lingvistik xususiyatlariga bag‘ishlangan tahliliy fikrlar va nazariy-amaliy xulosalardan “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Adabiy jarayon” va “Ta’lim va taraqqiyot” nomli radio eshittirishlarida, “Foreign Languages” telekanalining 2021-yilning to‘rtinchi choragida efirga uzatilgan “Nemis tili” teleko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 30-martdagi 04-36-679-son va 2022-yil 10-iyundagi 02-05-875-son ma’lumotnomalari). Natijada televosita orqali tenglovchilarning tilshunoslikning dolzarb muammolari haqidagi tushunchalarini shakllantirishga va bilimlarni boyitishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 2 ta lug‘at va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 5 ta xorijiy impakt faktorli hamda Scopus bazasida ro‘yxatdan o‘tgan ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashqari 126 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Agrar terminlarining til sistemasida tutgan o‘rni va uning tilshunoslikda o‘rganilishi**” deb nomlangan birinchi bobida sohaga oid termin, terminologiya, terminologik birliklar va ularga jahon va o‘zbek tilshunosligida berilgan ta’riflar, agrar terminlarini to‘plash va tartibga solish masalalari yoritilgan. Shuningdek, termin, terminologiya, atama, atamashunoslik va nomenklatura tushunchalariga olimlar tomonidan bildirilgan nazariy qarashlar o‘rganilgan hamda munosabat bildirilgan. O‘zbek va dunyo tilshunoslarining terminlar va soha terminologiyasi yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari tadqiq etilgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida termin so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: “Termin [lot. terminus – chek, chegara] fan, texnika, kasb-hunarning biror

sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama”<sup>11</sup>. XX asrning 70-yillarida nashr etilgan “The World Encyclopedia Dictionary” lug‘atida termin so‘zi quyidagicha tavsiflangan: “Termin fanda, san’atda, biznes va iqtisodda ishlatiladigan maxsus so‘zdir”<sup>12</sup>.


Ma’lum bir sohani egallash, shu soha mutaxassislarining muloqot jarayonini tushunish, ya’ni V.Danilenko ta’kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko‘rsatkichi shu soha terminologiyasining “qat’iy ilmiy terminologiya”ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.Danilenko ushbu jumlada “qat’iy ilmiy terminologiya” tushunchasini biron bir soha terminologiyasining mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg‘unlashuvi, sohaga oid terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo‘lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi<sup>13</sup>.

Turli soha terminologiyasiga mansub terminlar, terminologiyaning nazariy tomonlari bilan shug‘ullangan G.Vinokur, A.Reformatskiy, V.Vinogradov, S.Barxudarov, O.Axmanova, K.Levkovskaya, B.Golovin, V.Danilenko, V.Leychik, muammoning amaliy jihatlari D.Lotte, S.Chapligina, S.Korshunova, G.Kandelaki tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. V.Leychik o‘z izlanishlarida terminologiya so‘zini asosan ikki ma’noda qo‘llanishini keltirib o‘tgan:

1. “Terminologiya – muayyan sohalarda maxsus ma’noni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari majmuyi.

2. Terminologiya – terminlarning grammatik strukturasi va tilda qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi lingvistikaning alohida aspekti”<sup>14</sup>.

**Soha terminologiyasi** – biror-bir tarmoq, yo‘nalish, mutaxassislik leksikasi hisoblanadi. Soha leksikasini –sohaga oid so‘z va so‘z birikmalari tashkil qiladi<sup>15</sup>.



**1-sxema. Standartlashtirilgan soha terminologiyasi**

<sup>11</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли.4- жилд. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2007. – Б. 74.

<sup>12</sup> Sherman L. Taxation in Egypt. Princeton. – N. J.:Princeton University Press, 1938. – P. 521.

<sup>13</sup> Даниленко В. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.:Наука, 1977. – С. 157.

<sup>14</sup> Лейчик В. Номенклатура-промежуточное звено между терминами и собственными именами // Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж, 1974. – С. 161.

<sup>15</sup> Möhn D., Pelka R. Fachsprachen-Einführung. – Berlin: Max Niemeyer, 1984. – S. 26.

Yuqoridagi 1-sxemada keltirilgan sohalar terminologiyasi standartlashtirilgan soha terminologiyasi hisoblanib, adabiy tildan ancha farq qiladi. Ular til sathida qo‘llanish doirasiga ko‘ra ko‘p hollarda shu soha xodimlari va mutaxassislari tomonidan foydalaniladi<sup>16</sup>.

Soha va kasbga oid leksika Helmut Glukning<sup>17</sup> quyida keltirilgan maxsus leksikaning strukturasi keltirildi:

**1-jadval**

**Maxsus leksikaning strukturasi**

Sonderlexik <i>Maxsus leksika</i>	
Fach- und Berufswortschatz Soha va kasbga doir leksika	Gruppenwortschatz (Jargon) Guruhlar leksikasi (jargon) Der sozialen Gruppen // der Altersgruppen Ijtimoiy guruhlar // Yoshga doir guruhlar
Termini (Fachwörter)Terminlar (sohaga oid so‘zlar)	Professionalismen Professionalizmlar Halbtermini Yarim terminlar
Fachjargonismen Sohaviy jargonlar Berufsjargonismen Kasbiy jargonlar	Soldatenlexik Askarlar leksikasi
Studentenlexik Talabalar leksikasi	Sportlexik Sportchilar leksikasi
Jägerlexik Ovchilar leksikasi	Gauernerlexik O‘g‘rilar leksikasi
Jugendlexik Yoshlar leksikasi	Schülerlexik O‘quvchilar leksikasi

Maxsus leksikaning soha, kasbga doir va guruhlar leksikasiga ajratilishi (1-jadval) soha leksikaning tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

XX asrning 60 – 70-yillarida olib borilgan tadqiqotlar nemis tilshunosligida terminshunoslikni samarali tadqiq qilingan sohalardan biriga aylantirdi. Tadqiqotlarda mavjud ilmiy adabiyotlar, ensiklopedik asarlarga murojaat qilinib, tizim sifatida o‘rganilgan. T.Roelcke nemis terminologiyasida olib borilgan izlanishlarni fanlar joriy etilish (liberales), sohalarning rivojlanishi (mechanicae), ijodkorona yondashish (magicae) guruhlariga ajratgan<sup>18</sup>.

O‘zbek tilshunosligida nodir manba hisoblangan turkiy tillar lug‘atchiligining asoschisi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” lug‘atini, shuningdek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning nodir asarlarini o‘zbek terminologiyasining taraqqiy topishida alohida ahamiyatga ega manbalar

<sup>16</sup> Bussmann – Lexikon der Sprachwissenschaft. – Stuttgart: Alfred Kröner Verlag, 2008. – S. 211.

<sup>17</sup> Glück H., Rödel M. Metzler Lexikon Sprache. 5. Aktualisierte und überarbeitete Auflage. – Stuttgart: Metzler Verlag, 2016. – S. 126.


<sup>18</sup> Roelcke T. Fachsprachen. – Berlin: Erich Schmidt, 1999. – S. 163.

sifatida qayd etish mumkin. Masalan, “Devonu lug‘atit turk”<sup>19</sup> da *yag‘mur* (*sholg‘om*), *et* (*go‘sh*), *utlak* (*o‘tloq*), *inak* (*sigir*) kabi qishloq xo‘jaligiga oid so‘zlar ham o‘rin egallagan.

So‘zning qaysi leksik qatlama tegishli ekanligini aniqlash oson emas. Umumiste‘moldagi lug‘atlarda va terminologik lug‘atlarda so‘z chegarasini har doim ham aniqlab bo‘lmaydi. Sohaga oid terminlarni zamonaviy adabiyotlarda quyidagi tasvir orqali ko‘rishimiz mumkin<sup>20</sup>:

## 2-jadval

### Terminologiyaga tegishli leksik qatlam strukturasi



Leksemalarni leksik qatlama ajratishda zamonaviy adabiyotlarda keltirilgan terminologiyaga tegishli leksik qatlam strukturasi (2-jadval) so‘z chegarasini aniqlashda yordam beradi.

Nomenklatura<sup>21</sup> (*lotin: nomenclatura – ,nomko‘rsatkich*) qo‘llanish sohasi va shu mavzuga doir yo‘nalishlardagi *nomlar, terminlar yig‘indisi, to‘plamidir*.

O.Axmanovanning nomenklatura terminiga quyidagicha ta‘rif bergan: “*Nomenklatura–biror-bir fan yo‘nalishidagi obyektlarning nomi, maxsus terminologik nomlarning yig‘indisi, to‘plamidir. Ular yordamida shu fan yo‘nalishiga doir abstrakt tushuncha va kategoriyalar nomlangan bo‘ladi*”<sup>22</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Nemis va o‘zbek tillarida agrar terminlarning lisoniy xususiyatlari**” deb nomlanadi.

Ushbu bobda nemis va o‘zbek tillarida agrar termin va leksemalarining etimologiyasi, morfologiyasi, so‘z yasash usullari, lotin, yunon va ingliz tillaridan nemis tiliga o‘zlashgan agrar terminlari, fors-tojik, arab tillaridan o‘zbek tiliga o‘zlashgan agrar terminlari, ularning chog‘ishtirilayotgan tillarda lisoniy o‘xshash va farqli nomutanosib xususiyatlari yoritib berildi. Shuningdek, nemis va o‘zbek tillaridagi agrar sohasiga oid termin va leksemalarning tahlili natijasida ular qaysi so‘z turkumlariga mansub ekanligini miqdor jihatdan aniqlashga harakat qildik.

Hozirda nemis tilshunosligida zamonaviy elektron etimologik lug‘atlarda agrar terminlarning to‘liq ilmiy-nazariy ma‘lumotlar bazasi yig‘ilgan. Asosiy lingvistik jihatlarini keltirib o‘tishda *Boden m. (yer)* va *Wald m. (o‘rmon)* misollaridan unumli foydalanildi:

**Wald m. (o‘rmon)** ‘*große, dicht mit Bäumen bestandene Fläche, Forst*’, *ahd. wald (VIII Jh.), mhd. walt ‘Wald, Waldgebirge, Baumbestand, Holz, die laubigen*

<sup>19</sup> Кошғарий М. Девону луғотит турк. I том. – Т.: Фан, 1960. – Б. 82.

<sup>20</sup> Stojic A. Lexikologie und Lexikographie. – Rijeci: Filozofski fakultet Rijeka, 2015. – S. 16.

<sup>21</sup> <https://www.wortbedeutung.info/Nomenklatur/>.

<sup>22</sup> Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004. – С. 509.

*Äste und Zweige eines Baumes. Tarjimasi: o'rmon* (zich daraxtlar bilan qoplangan katta maydon, qadimgi nemis tilida wald (VIII asr), o'rta asrlar davrida walt Wald, o'rmon tog'lari, daraxt tanasi, yog'och, bargli shoxlar va daraxt shoxlari).

**Boden m. (yer, tuproq)** 'Erdoberfläche, Grund', ahd. bodam (IX Jh.), mhd. frühhd. (bis ins XVII Jh.) bodem, mhd. auch boden, asächs. boðom, mnd. bōdem(e), auch boddem. **Tarjimasi: yer, tuproq** (yer yuzasi, yer, qadimgi nemis tilida bodam (IX asr), o'rta asr va yangi davrlarda nemis tilida (XVII asrgacha) boddem, boden).

O'zbek tilshunosligida dastlabki tajriba sifatida yaratilgan "O'zbek tilining etimologik lug'ati"<sup>23</sup>, lug'at maqolasida agrar terminlar talqini quyidagicha keltirilgan. Masalan, *BUZOQ* 'sigir bolasi'. *Buzoq yechilib ketib, ekinga oralabdi. Bu so'z qadimgi turkiy tildagi 'tug'ish', ma'nosini anglatgan buz otidan -a qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga -q qo'shimchasini qo'shib yasalgan; o'zbek tilida q undoshi oldidagi a unlisi â unlisiga almashgan: (buz+a =buza-)+q =buzaq > buzâq. Bu ot asl 'hayvon bolasi', ma'nosini anglatgan bo'lib, keyinchalik ma'noda torayish voqelangan: faqat 'sigir bolasi'ni anglata boshlagan. Mahmud Qoshg'ariyning lug'atida shunday ma'noni anglatuvchi buzag'u so'zi keltirilgan; bu ot buza- fe'lidan -g'u qo'shimchasi bilan yasalgan.*

Avesto davrida ham g'alla ekish, don yetishtirish, xo'jalik yuritishning asosini tashkil etgan va dehqonchilik madaniyati yetarli darajada rivojlangan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu-lug'otit turk"<sup>24</sup> lug'atida ham dehqonchilik va irrigatsiyaga aloqador ko'pgina so'zlarni keltirish mumkin. Masalan: *alan – tekis maydon, tupraq – tuproq, tarig'chi – don ekuvchi dehqon, arpa – arpa, bug'daj – bug'doy, danal – arpa bug'doylar o'rilgach, saj – qora toshli yer, urug' – urug', chigit – paxta urug'i, chigit. XIII asr yozma yodgorligi Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat al-adab", Abu Hayyonning "Kitob ul-idrok lil-lisoni il atrok"* asarlarida ham ko'pgina dehqonchilikka tegishli bo'lgan so'zlarni uchratish mumkin.

F. de Sossyur tilga bir sistema sifatida qaraydi va sistemaviylikni yoritishga e'tibor qaratadi. Til sistemasidagi fonema, morfema, so'z va leksemalar lingvistik birliklar sanalib, ular bir biri bilan munosabatda bo'ladi<sup>25</sup>. Lingvistik birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar oddiydan murakkabga qarab integratsion rivojlanib boradi.


Tadqiqot mobaynida agrar leksikasida arxaizmlarning termin sifatida qo'llanmasligi aniqlandi: *omoch, omochlamoq, juvoz* va boshqalar.

Nemis tilida agrar terminlarini morfologik tadqiq qilish jarayonida nemis tilidagi agrar soha terminlarining asosini ot, sifat hamda fe'l so'z turkumiga kiruvchi terminlar tashkil etishi, agrar terminlarning miqdor jihatdan ko'pchiligi ot so'z turkumiga tegishliligi ma'lum bo'ldi.

<sup>23</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар) – Т.: Университет, 2000. – Б. 65.

<sup>24</sup> Кошғарий М. Девону луғотит турк. I том. – Т.: Фан, 1960. – Б. 82.

<sup>25</sup> Соссюр Ф. Труды по языкознанию – М.: Прогресс, 1977. – С. 147.



**1-rasm. Nemis va o'zbek tillari agrar terminlarining morfologik jihatdan tahlili**

Tahlil natijalariga ko'ra nemis va o'zbek tillarida terminlarning nominativlik xususiyatlarning yuqoriligi, agrar terminlar misolida ot so'z turkumining terminologik lug'atda sarmahsulligini ta'minlaydi. O'zbek tili so'z yasalishi tizimini tadqiq qilgan olim A.Hojievning fikricha, o'zbek tilida ot, sifat va fe'l so'z turkumlariga xos so'z yasalishi tizimlari shu tilning so'z yasalishi tizimini tashkil etadi<sup>26</sup>. Bizning fikrimizcha, bir-biriga qardosh bo'lmagan, nemis va o'zbek tillari lug'at boyligida ot, sifat va fe'l so'z turkumlarining sarmahsulligi ikkala til uchun ham xosdir.

A.Sherbakning fikricha, "so'z yasalishi so'z turkumlarida ikkilamchi asoslarni vujudga keltirish bilan ajralib turadi. Ikkilamchi asos tushunchasi esa so'z yasalishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular so'z yasovchi affiksalar vositasida hosil bo'ladi"<sup>27</sup>.

Nemis va o'zbek tillarida agrar terminlarda derevatsion usulning sarmahsulligi va agrar terminlarining yasalishida faol hisoblangan suffiksalar chog'ishtirma tarzda quyida keltirib o'tildi:

**3-jadval**

**Nemis va o'zbek tillarida agrar terminlar yasalishida faol suffiksalar**

Nemis tili	Misollar	O'zbek tili	Misollar
-bar, -sam	<i>furchtbar</i>	-dor	<i>hosildor</i>
-er, -ling	<i>Gärtner m.</i>	-chi	<i>bog'bon, bog'chi</i>
-ig	<i>kettensförmig</i>	-simon	<i>zanjirsimon</i>
-los	<i>stammlos</i>	-siz	<i>poyasiz</i>
-ung	<i>Lagerung f.</i>	-ma, -i(sh)	<i>g'amlama</i>
-zucht	<i>Tierzucht f.</i>	-chilik	<i>chorvachilik</i>

Nemis va o'zbek tillarida agrar terminlarining derivatsion usulda so'zlar yasalishi ikki tilda ham sarmahsulligini hisobga olib qiyoslanganda jadvalga

<sup>26</sup> Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б. 61.

<sup>27</sup> Щербак А. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков. – Ленинград: Наука, 1987. – С. 12.

keltirilgan soʻz yasovchi qoʻshimchalarning yangi soʻz yasashida maʼno va soʻz yasashi jihatidan mos kelishi kuzatildi.

Agrar terminlarining lingvistik tadqiqi jarayonida nemis tilida kompozitsiya, derivatsion soʻz yasash usullari va oʻzbek tilida affiksatsiya usullari ancha sermahsul ekanligi namoyon boʻldi.

#### 4-jadval

#### Kompozitsiya usuli orqali yasalgan agrar terminlar

Nemis tili	Oʻzbek tili
<i>Düngemittel n.</i>	<i>asalari</i>
<i>Eiqualität f.</i>	<i>tuyaqush</i>
<i>Fruchtkörper m.</i>	<i>oshqovoq</i>
<i>Frischobst n.</i>	<i>shakarqamish</i>
<i>Kleingarten m.</i>	<i>sariqtol</i>
<i>Pfefferwurzel f.</i>	<i>oltingugurt</i>
<i>Schlachtmesser n.</i>	<i>kungaboqar</i>

Nemis tilida agrar terminlarining tadqiq qilish jarayonida soʻz yasashida qoʻshma soʻzlarning faol ishtiroki namoyon boʻlib, ular nemis tilida *ot+ot (N+N)*, masalan, *Eiqualität f.* – *tuxum sifati*, *Fruchtkörper m.* – *meva tanasi*, *Pfefferwurzel f.* – *qalampir ildizi*, oʻzbek tilida, *tuyaqush*, *oshqovoq*, *shakarqamish*, *oltingugurt* kabi soʻzlarni yasaydi. Nemis tilida qoʻshma soʻzlarning *feʼl+ot (V+N)*, masalan, *Düngemittel n.*– *mineral oʻgʻit*, *Schlachtmesser n.* – *qassob pichogʻi*; *ot+sifat (N+Adj)* masalan, *Kleingarten m.* – *kichkina bogʻ*; *sifat+ot (Adj+N)* masalan, *Frischobst n.* – *yangi meva* qoʻshma soʻzlari 4-jadvalda keltirildi. Oʻzbek tilshunosligida kompozitsiya ot, sifat, ravish va feʼl soʻz turkumlarida tarqalgan. Ularning komponentlari bir soʻz turkumi yoki turli soʻz turkumlariga mansub boʻlishi mumkin.

**Qisqartma soʻz yasash** usuli, tilda mavjud boʻlgan tub soʻzlar, qoʻshma soʻzlar va soʻz birikmalarini yaxlit bir qisqartma holiga keltirib, qisqartirilgan soʻz yasashga aytiladi, masalan: *AF – Ackerfläche – haydaladigan maydon*.

Tahlil jarayoni natijasida agrar sohaga doir bir qancha soʻz va birikmalar borligi aniqlandi.

#### 5-jadval

#### Qisqartma soʻz yasash usuli yordamida hosil boʻlgan agrar soha terminlari

Nemis tili	Oʻzbek tili
<i>AfW – Amt für Wasserwirtschaft</i>	<i>ga – gektar</i>
<i>BA – Bodenanteil</i>	<i>NPK – azot, fosfor va kaliy</i>
<i>BBG – Bodenbearbeitungsgerät</i>	<i>pH – tuproq muhiti reaksiyasi</i>
<i>BF – Betriebsfläche</i>	<i>bogʻ – dorchilikka oid atama</i>
<i>FB – Futterbau</i>	<i>geod. – geodeziyaga oid termin</i>

Qisqartma soʻz yasash usuli yordamida hosil boʻlgan agrar terminlar chogʻishtirilayotgan ikki tilda tub, kompozitsiya va birikma terminlar kabi ifodalanadi va qisqartirgan leksemalar bosh harflar yoki maʼlum qismlarni qoʻshish bilan hosil qilinadi. Masalan: *GL – Grünland* nemis tilida, *ga – gektar* oʻzbek tilida.



Bir soʻz turkumidan ikkinchi soʻz turkumiga oʻtib soʻz yasalishi, yaʼni **konversiya (die Konversion, Konvertierung)** oʻziga xos boʻlgan soʻz yasash usuli hisoblanadi. Bu hodisa nemis va oʻzbek tillariga xos hodisa hisoblanib, nemis tilida sermahsul, oʻzbek tilida esa nemis tiliga qaraganda kammahsul hisoblanadi. Soʻz yasashning konversiya usulida 6-jadvalda misollar keltirildi:

### 6-jadval

#### Konversiya usulida yasalgan agrar sohaga oid terminlar

Nemis tili	Oʻzbek tili
<i>Acker m. – ackern</i>	<i>shudgor– shudgorlash, shudgorlamoq</i>
<i>Impfen n.– impfen</i>	<i>emlash – emlamoq</i>
<i>Irrigation f. – irrigieren</i>	<i>sugʻorish – sugʻormoq</i>
<i>Pelletisieren n. – pelletisieren</i>	<i>donacha – donadorlash</i>

Keltirilgan misollarda ot soʻz turkumining feʼl soʻz turkumiga koʻchishi natijasida *Acker m. – ackern* nemis tilida, *shudgor– shudgorlash, shudgorlamoq* oʻzbek tilida konversiya usulida agrar terminlari yasaldi. Oʻzbek tili agrar leksikasida konversiya usulida soʻz yasalishi feʼlning sifatdosh va harakat nomi bilan bogʻliqligi kuzatildi. Masalan, *quritilgan, pishgan, maydalangan, muzlatilgan, oziqlantiruvchi, qoʻzgʻatuvchi* va boshqalar. Shuningdek, oʻzbek tilida feʼlning vazifadoshlik shakli hisoblangan harakat nomi kabi ifodalanishi masalan, *emlash – emlamoq* va boshqalar. Nemis tilida konversiya usulida soʻz yasalishi, feʼllarning otlashuvi hamda otdan feʼl yasash sermahsul hisoblanadi, ammo agrar terminlari misolida ushbu soʻz yasash hodisasi kammahsul ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot mobaynida leksikografik manbalarda agrar terminlar misolida gibrid terminlarning mavjudligi quyidagi jadvalda keltirildi:

### 7-jadval

#### Agrar sohaga oid gibrid terminlar

Nemis tilida	Oʻzbek tilida
<i>Agrar+wirtschaft f.</i>	<i>Agro+biologiya</i>
<i>Makro+mutation f.</i>	<i>Agro+kimyo</i>
<i>Pacht+fläche f.</i>	<i>Agro+melioratsiya</i>
<i>Pantoffel+baum m.</i>	<i>Agro+meteorologiya</i>
<i>Privat+besitz m.</i>	<i>Makro+iqtisodiyot</i>
<i>Spargel+bohne f.</i>	<i>Mikro+biologiya</i>

Gibrid terminlar kompozitsiya koʻrinishida kelib, asosan internationalizm sifatida, yaʼni ikki komponentdan iborat boʻlib, ikki leksemaning birikishidan hosil boʻladi. Masalan 7-jadvalda keltirilgan misollar *Agrar+wirtschaft f., Makro+mutation f., Pacht+fläche f., Pantoffel+baum m., Privat+besitz m., Spargel+bohne f., Zeit+pacht f.* Keltirilgan misollardagi *Agrar-, Makro-, Pacht-, Pantoffel-, Privat-, Spargel-* kabi soʻzlar fransuz, grek, lotin tillaridan kirib kelgan soʻzlardir. Gibrid terminlarning ikkinchi komponenti asosan nemis tilidan kirib kelgan leksemalar hisoblanadi. Gibrid terminlar oʻzbek tilshunosligida ham qoʻshma terminlar shaklida kelib, bu internatsionalizmning yasalishida grek va lotin tilidagi prefiksial morfemalar faol ishtirok etadi. Bunga agrar terminlar

misolida ko‘plab terminlarni misol tariqasida keltirish mumkin, masalan *Agro+biologiya*, *Agro+kimyo*, *Agro+melioratsiya*, *Agro+meteorologiya*, *Makro+iqtisodiyot*, *Mikro+biologiya* va boshqalar. Fikrimizni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, gibrid terminlar ikkala tilda ham internatsionalizm sifatida mavjud bo‘lib, ikki komponentdan tashkil topadi hamda komponentlarning bir qismi nafaqat nemis va o‘zbek tillaridan kelgan leksemalardan, balki, boshqa tillardagi so‘zlar bilan ham ifodalanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Nemis va o‘zbek tillari agrar sohaga oid terminlarning leksikografik aspektlari**” deb nomlanib, ushbu bobda agrar terminlarining leksikografik tamoyillari, nemischa-o‘zbekcha lug‘atlar tahlili, lug‘atlarda agrar terminlarning leksikografik belgilar asosida berilganligi, agrar terminlarning tematik tasnifi, nemischa-o‘zbekcha lug‘atlarning chog‘ishtirma aspektda tahlili hamda zamonaviy terminologik lug‘at tuzish masalalariga bag‘ishlangan.

Muayyan sohalarga oid terminologiya va professional tillarning leksikografik tavsifi, tematik klassifikatsiyasi terminologiyaning hozirgi davrdagi holati bilan uzviy bog‘liq. Nemis tilshunosligi va terminshunosligida terminologiya tushunchasi, avvalo, bir tizim sifatida o‘rganilgan, til va sohalarning rivojlanishiga qarab bu tizim yakka sohalar doirasida rivojlangan. F.Dornzayf tomonidan yaratilgan “Nemis tili leksik qatlamining tematik klassifikatsiyasi” nomli asari fikrimizning dalili bo‘lishi mumkin. F.Dornzayf nemis tili so‘z boyligini, so‘z birikmalarini tematik jihatdan 20 ta asosiy guruhga ajratgan, ushbu 20 ta guruh nemis tili lug‘at boyligida qo‘llaniladigan umumiy leksikani qamrab olgan, shu guruhlardan ko‘pchiligining agrar sohaga tegishliligi, soha terminologik tizimining katta semantik maydondan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Agrar terminlarini tasniflash nafaqat yangi elektron lug‘atda yoritilib qolmay, balki bunday guruhlarni boshqa leksikografik manbalarda ham ko‘rish mumkin, masalan, ommabop hisoblangan Langenshaydt (Langenscheidt) lug‘atida agrar terminlari qisqartmalar asosida mavzuviy guruhlarga ajratilgan:


1. Agr. – Landwirtschaft (*qishloq xo‘jaligi*).
2. Biol. – Biologie (*biologiya*).
3. Bot. – Botanik (*botanika*).
4. Chem. – Chemie (*kimyo*).
5. Ökon. – Wirtschaft. Volkswirtschaftslehre (*iqtisod*).
6. Pharm. – Pharmazeutik (*farmatsevtika*).
7. Tech. – Technik, Technologie (*texnologiya*).
8. Zool. – Zoologie (*zoologiya*).

Ushbu lug‘atning umumiste‘moldagi lug‘atligi va agrar terminlarning ijtimoiy hayotda faol bo‘lgan mavzuviy guruhlari keltirilganligi kuzatildi. Agrar terminlarninig barcha tematik guruhlari nemis tilida nashr etilgan umumiste‘moldagi lug‘atlarda keltirib o‘tilmagan. Tadqiqot jarayonida nemis tilshunosligida qayta nashrdan chiqqan hamda yangi nashr qilingan DUDEN lug‘atlarida (DUDEN, das große Wörterbuch der deutschen Sprache, DUDEN, das Fremdwörterbuch) agrar sohaga tegishli terminlarni (*fachspr. fachsprachlich* hamda *Fachspr. Fachsprache*) ajratib ko‘rsatilganligi, nemis tilshunosligida

barcha sohalarining terminologik tizimi semantik maydonga ajratib olinganligi ma'lum bo'ldi.

O'zbek tilida ham nemis tilidagi kabi agrar soha leksik qatlamini ikki asosiy guruhga *dehqonchilik (Pflanzenbau)* va *chorvachilik (Tierhaltung)* ajratiladi. O'zbek tilida chorvachilik terminlarining leksik-semantik tadqiqi borasida ilmiy izlanishlar olib borgan O.O'rinova sistema ichida sistema tamoyiliga amal qilgan holda chorvachilik terminlariga umumiy maydon sifatida qaraydi va bu maydonni sistemalarsiz (*qoramolchilik terminlari, qo'ychilik terminlari, yilqichilik terminlari, tuyachilik terminlari va echkichilik terminlari*) tasavvur qilish qiyinligini izohlab beradi<sup>28</sup>.

